



SIRDARYO VILOYATI GULISTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil «23» - yanvar

22-9-124-Q/23

Guliston tumani hokimligi

Sirdaryo viloyati hokimining 2023-yil 20-yanvardagi “Viloyatda 2023-yilda qo‘llaniladigan davlatga tegishli ko‘chmas mulklar ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 27-9-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida

Sirdaryo viloyat hokimining 2023-yil 20-yanvardagi 27-9-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Sirdaryo viloyati hokimining 2023-yil 20-yanvardagi “Viloyatda 2023-yilda qo‘llaniladigan davlatga tegishli ko‘chmas mulklar ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 27-9-0-Q/23-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyati hokimining ushbu qarori bilan:

Viloyatda 2023-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalari 1-ilovaga, ijara to‘lovi stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 2-ilovaga, Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi uchun ijara to‘lovi stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Davlat mulkini balansda saqlovchilarning mansabdor shaxslari zimmasiga:

tasarrufida bo‘lgan davlat mulkini yilning har choragida kamida bir marta xatlovdan o‘tkazish;

foydalanilmayotgan davlat mulki to'g'risidagi ma'lumotlarni Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish viloyat boshqarmasiga o'z vaqtida va to'liq, shuningdek ijaraga berilayotgan mol-mulkning tiklanish qiymati to'g'risida ishonchli axborot taqdim etish;

davlat mulkini ijara shartnomasi tuzmasdan ijaraga berilishiga, ijara shartnomasida ijaraga berilgan mulkning parametrlari va soni noto'g'ri qayd etilishiga yo'l qo'ymaslik hamda qonun hujjatlarida belgilangan boshqa vazifalar yuklatilsin.

4. Tuman hududida 2023-yilda davlat mulki bo'lgan binolar va xonalarda joylashgan byudjet tashkilotlari uchun ijara to'lovining nol stavkasi belgilab qo'yilsin.

5. Mazkur qaror "Guliston hayoti" gazetasida chop etilsin va hokimlik rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari U.Mamarasulov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



S.Begimkulov